



Программа Международного форума

РУСИСТИКА И ТЮРКОЛОГИЯ: ЛИТЕРАТУРНЫЕ ТРАДИЦИИ, КУЛЬТУРНЫЙ ТРАНСФЕР И ПЕРЕВОД



БУХАРА

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
КАЗАНСКИЙ ФЕДЕРАЛЬНЫЙ (ПРИВОЛЖСКИЙ) УНИВЕРСИТЕТ
СЕВЕРНЫЙ (АРКТИЧЕСКИЙ) ФЕДЕРАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМ. М. В.
ЛОМОНОСОВА

Международный форум «*Русистика и тюркология:
литературные традиции, культурный трансфер и
перевод*», посвященный 95-летию Бухарского
государственного университета
Сборник научных трудов и материалов
2-4 октября 2025 года

Buxoro davlat universitetining 95 yilligiga bag‘ishlangan
“**Russhunoslik va turkshunoslik: adabiy an’analar, madaniy
transfer va tarjima**” xalqaro forumi
Ilmiy maqolalar va materiallar to'plami
2-4 oktyabr, 2025 yil

International Forum "**Russian Studies and Turkic Studies:
Literary Traditions, Cultural Transfer, and Translation,**"
dedicated to the 95th anniversary of Bukhara State University
Collection of Scientific Papers and Materials
October 2-4, 2025

БУХАРА-2025

Главный редактор:

М.А. Бокарева, старший преподаватель кафедры русского языка и литературы Бухарского государственного университета

Редакционная коллегия:

Д.Х. Темирова, PhD, доцент кафедры русского языка и литературы Бухарского государственного университета

Международный форум «Русистика и тюркология: литературные традиции, культурный трансфер и перевод», посвященный 95-летию Бухарского государственного университета.
- Бухара, 2025 год.

Языки издания: русский, o‘zbek, english,

Сборник предназначен для научных работников и преподавателей высших учебных заведений. Может использоваться в учебном процессе, в том числе в процессе обучения аспирантов, подготовки магистров и бакалавров в целях углубленного рассмотрения соответствующих проблем. Все статьи сборника прошли рецензирование, сохраняют авторскую редакцию, всю ответственность за содержание и достоверность представленных материалов несут авторы.



Люй Шаомэй ПЕРЕВОД РУССКОЯЗЫЧНОГО ТЕКСТА АРКТИЧЕСКОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ НА КИТАЙСКИЙ ЯЗЫК В АСПЕКТЕ КУЛЬТУРНОГО ТРАНСФЕРА (НА ПРИМЕРЕ ПЕРЕДАЧИ КУЛЬТУРНО МАРКИРОВАННОЙ ЛЕКСИКИ)	482
Мамедова Т.А. ТЮРКСКИЕ ЗАИМСТВОВАНИЯ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ КАК ОТРАЖЕНИЯ КУЛЬТУРНОГО ТРАНСФЕРА	487
Тарасова Н.И. ЭНЦИКЛОПЕДИЧНОСТЬ ЗНАНИЙ КАК СРЕДСТВО И КАК ЦЕЛЬ ОБУЧЕНИЯ ПЕРЕВОДУ	490
Мухиддинов А.Г. АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СРАВНИТЕЛЬНО – СОПОСТАВИТЕЛЬНОГО ЯЗЫКОЗНАНИЯ И ТЕОРИИ ПЕРЕВОДА	494
Обухова Н.В., Абубакирова Н.Р. КУЛЬТУРНЫЕ ЛАКУНЫ В ПЕРЕВОДЕ: УЗБЕКСКИЕ РИТУАЛЬНЫЕ ТЕРМИНЫ КАК ФЕНОМЕН БЕЗЭКВИВАЛЕНТНОЙ ЛЕКСИКИ	498
Оловянная А.С. ПЕРЕДАЧА КУЛЬТУРНЫХ РЕАЛИЙ В ПЕРЕВОДЕ РОМАНА А.С. БАЙЕТТ «POSSESSION» НА РУССКИЙ ЯЗЫК	502
Поликарпов А.М. ПЕРЕВОД КАК КУЛЬТУРНЫЙ ТРАНСФЕР И ЭТНОКУЛЬТУРНАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ	507
Поликарпова Е.В. КОМАНДНЫЙ ФОРМАТ КАК ФОРМА ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ РАЗНЫХ ЖАНРОВ	512
Сентемов Д.А. РОЛЬ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ В ТРАНСФЕРЕ КИТАЙСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РОССИЮ НА ПРИМЕРЕ СЕВЕРНОГО (АРКТИЧЕСКОГО) ФЕДЕРАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА	516
Шарафутдинова Н.С. ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ МЕДИЦИНСКИХ ТЕРМИНОВ (НА МАТЕРИАЛЕ АНГЛИЙСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ)	519
СЕКЦИЯ 6. ТРАДИЦИИ, ИННОВАЦИИ И ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ ЯЗЫКОВ И ЛИТЕРАТУР	
Sohibova Z.N., Sodiqova D.T. ERKIN A'ZAM TARJIMAYI HOLINI JADVAL ASOSIDA O'RGANISH TAJRIBASI	523
Quvvatova D., Boltayeva G. ABDULLA ORIPOV SHE'RLARINI YANGI TEXNOLOGIYALAR ORQALI O'RGANISH	528
Арипова М.Г. ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИИ В ПРЕПОДАВАНИИ ЛИТЕРАТУРЫ: ИММЕРСИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ МЕТАКОГНИТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ	534
Арипова Х.А. ФОРМИРОВАНИЕ ТЕОРЕТИКО-ЛИТЕРАТУРНЫХ ПОНЯТИЙ У УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ АНАЛИЗА ЭПИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ	538
Ахмедов Б.Я. ВЗАИМОСВЯЗАННОЕ ОБУЧЕНИЕ ЯЗЫКУ И РЕЧИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА	541



терминов с английского на русский язык чаще всего применяются транслитерация, калькирование и подбор семантического эквивалента.

Литература:

1. Влахов С.И., Флорин С.П. Непереваемое в переводе. – Изд. 4-е. – М.: Р. Валент, 2009. – 360 с.
2. Татарinov В.А. Общее терминоведение: Энциклопедический словарь / Российское терминологическое общество РОсСТерм. – М.: Московский Лицей, 2006. – С. 137-138.

СЕКЦИЯ 6. ТРАДИЦИИ, ИННОВАЦИИ И ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ ЯЗЫКОВ И ЛИТЕРАТУР

ERKIN A'ZAM TARJIMAYI HOLINI JADVAL ASOSIDA O'RGANISH TAJRIBASI

Sohibova Zarnigor Nusratilloevna

PhD, Dotsent

Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston,

Sodiqova Dilorom Tursunovna

PhD, Dotsent

Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston,

Annotatsiya: Maqolada Erkin A'zam hayoti va faoliyatini jadval asosida o'rganish metodikasi yoritiladi. Biografik ma'lumotlarning jadval shaklida taqdim etilishi talabalarga yozuvchining hayot bosqichlarini tizimli va aniq tarzda o'zlashtirish imkonini beradi. Jadval asosida ishlash nafaqat faktlarni eslab qolishni osonlashtiradi, balki ularni tahlil qilish, qiyoslash va umumlashtirish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Mazkur yondashuv seminar mashg'ulotlarida interfaol usullar bilan uyg'unlashib, talabalarni mustaqil fikrlash va ijodiy ishlashga yo'naltiradi. Tadqiqot natijalari adabiyot ta'limini boyitishga, Erkin A'zam biografiyasini tizimli va samarali o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Erkin A'zam, tarjimai hol, ijodkor biografiyasi, jadval asosidagi tahlil, innovatsion yondashuv, adabiyot ta'limi.

Аннотация: В статье рассматривается методика изучения жизни и деятельности Эркина А'зама на основе таблицы. Представление биографических данных в табличной форме позволяет студентам системно и чётко усвоить этапы жизни писателя. Работа с таблицей не только облегчает запоминание фактов, но и развивает навыки анализа, сравнения и обобщения. Данный подход, интегрированный с интерактивными методами на семинарских занятиях, направляет студентов к самостоятельному мышлению и творческой



деятельности. Результаты исследования способствуют обогащению литературного образования и обеспечивают системное и эффективное усвоение биографии Эркина А'зама.

Ключевые слова: Эркин А'зам, биография, творческая биография писателя, табличный анализ, инновационный подход, литературное образование.

Abstract: The article discusses the methodology of studying the life and work of Erkin A'zam through a table-based approach. Presenting biographical data in tabular form enables students to systematically and clearly understand the stages of the writer's life. Working with tables not only facilitates memorization of facts but also develops skills of analysis, comparison, and generalization. This approach, combined with interactive methods in seminar classes, encourages students to think independently and engage in creative activity. The findings contribute to enriching literary education and ensure a systematic and effective study of Erkin A'zam's biography.

Keywords: Erkin A'zam, biography, writer's life, table-based analysis, innovative approach, literary education.

Erkin A'zam o'zbek adabiyotida, ayniqsa istiqlol davri nasrida alohida o'ringa ega yozuvchilardan biridir. Uning asarlari inson ruhiyatining chuqur tahlili, hayot haqiqatini boricha aks ettirish, teran kuzatuvchanlik, fikrga sodiqlik, qisqalik, milliy qadriyatlarga e'tibor va ijtimoiy muammolarni yoritish kabi jihatlari bilan ajralib turadi. Yozuvchi o'ziga xos uslubi, badiiy mahorati va sermahsul ijodi bilan adabiyotimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan. Uning asarlari o'quvchilarni hayotiy jarayonlarga yaqinlashtiradi, insonning ichki dunyosini ochib beradi, qiziqarli va sodda tilda hikoya qilinishi bilan kitobxonni zeriktirmaydi. U qisqalikni yaxshi ko'radi, gapning indallosini aytadi, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarga alohida e'tibor beradi. Shu bilan birga, jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, adolatsizlik va insoniy fojialarni ham o'z asarlarida tasvirlaydi.

Yozuvchining adabiyotdagi o'rni va badiiy merosini chuqur anglash uchun uning biografiyasini izchil o'rganish zarur. Shu maqsadda biz ijodkor tarjimai holini jadval shaklida o'rganishni taklif qilamiz. Ma'lumotlarni jadval asosida tasniflash va tahlil qilish yozuvchi hayoti va faoliyatini samarali o'zlashtirish imkonini beradi. Erkin A'zam tarjimai holi bo'yicha muhim faktlar ham ana shu jadvalda mujassamlashtirilishi mumkin. Unda quyidagi 4 jihat inobatga olinadi:

1. Shaxsiy ma'lumotlar.
2. Mehnat faoliyati.
3. Ijodiy faoliyati.
4. Erkin A'zam ijodi dunyo miqyosida.

Bu yondashuv yozuvchi biografiyasiga oid faktlarni tizimli eslab qolish uchun yaxshi samara beradi. Har bir jihat jadval asosidagi tasnifda o'z ichki bo'linishlarga ega bo'ladi, jumladan:

1. Shaxsiy ma'lumotlar



Bo'lim	Ma'lumot	Izoh
To'liq ismi		
Tavallud sanasi		
Tug'ilgan joyi		
Ta'lim		
Kasbi		
Unvonlari		

2. Mehnat faoliyati

Ish joyi	Lavozimi	Davri

3. Ijodiy faoliyati

Asar turi	Nomi	Yili

Biz taqdim etgan yondashuv asosidagi jadval seminar mashg'ulotida talabalarga ijodkor biografiyasini o'rganish jarayonida beriladi. Belgilangan vaqt ichida talabalar jadvalni mustaqil ravishda to'ldiradilar. Vaqt tugagach, ekranda jadvalning to'liq holati namoyish etiladi. Unda har bir jihatni alohida ranglar bilan ajratish ham muhimdir. Jadval quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Erkin A'zam shaxsiy va ijodiy faoliyatini tasniflash jadvali

SHAXSIY MA'LUMOTLAR		
Bo'lim	Ma'lumot	Izohlar
To'liq ismi	A'zamov Erkin Normamatovich	Adabiyot olamida Erkin A'zam nomi bilan tanildi
Tavallud sanasi	1950-yil 10-avgust	
Tug'ilgan joyi	Surxondaryo viloyati, Boysun tumani	Yurtimizning janubi, tabiati go'zal tog'li hudud
Ta'lim	Toshkent Davlat Universiteti Jurnalistika fakulteti	hozirgi O'zMU, a'lo baholar bilan tamomlagan (1969-1972)
Kasbi	Yozuvchi, publitsist, ssenarist O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan	
Unvonlari	jurnalist	1998-yil
	O'zbekiston xalq yozuvchisi	2016-yil
ERKIN A'ZAMNING MEHNAT FAOLIYATI		
Ish joyi	Lavozimi	Ish davri
O'zbekiston radiosi	Muharrir	1972–1976-yillar
"Guliston" jurnali	Muharrir, adabiy kotib	1976–1981-yillar



"Yoshlik" jurnali	Bo'lim mudiri	1981–1986-yillar
G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti	Tahririyat mudiri, ijodiy guruh rahbari	1986–1992-yillar
O'zbekiston Milliy axborot agentligi	Bosh direktorning 1-o'rinbosari	1992–1994-yillar
Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi	Rahbar o'rinbosari	1994-yil
"Tafakkur" jurnali	Bosh muharrir	1995-yildan hozirgacha
I, II chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati		
ERKIN A'ZAMNING IJODIY FAOLIYATI		
Asarning janri va turi	Asar nomi	Nashr yili
Ilk hikoyasi	"Inson"	1966-yil viloyat gazetasida nashr etilgan
Birinchi hikoyalar to'plami	"Chiroqlar o'chmagan kecha"	1977-yil
Qissa va hikoyalar to'plamlari	"Otoyining tug'ilgan yili"	1981-yil
	"Olam yam-yashil"	1984-yil
	"Javob"	1986-yil
	"Bayramdan boshqa kunlar"	1988-yil
	Мир в цветах	1999-yil
	"Pakananing oshiq ko'ngli"	2001-yil
	"Kechikayotgan odam"	2002-yil
Roman	"Guli-guli"	2009-yil
	"Shovqin"	2011-yil
Dramatik asarlari	"Jannat o'zi qaydadur"	2007-yil
	"Shajara"	2008-yil
	"Farrosh kampirning tushi"	2011-yil "Yoshlik" jurnali
	"Xonadon egasi"	2012-yil
	"Tanho qayiq yoxud devonaning orzusi"	2017-yil
Erkin A'zamning kinoqissalari		Film suratga olingan yil
"Chantrimore"		1990-yil
"Piyoda"		1996-yil
"Dilxiroj"		2001-yil
"Erkak"		2004-yil
"Suv yoqalab"		2008-yil
"Jannat qaydadir"		2008-yil
"Qarzdor"		2010-yil
"Parizod" (hammuallif)		2012-yil
ERKIN A'ZAM IJODI DUNYO MIQYOSIDA		
Asarlari tarjima qilingan tillar	Erkin A'zamning asarlari rus, ukrain, belorus, qozoq, tojik, turkman, gruzin, bolgar, chex tillariga tarjima qilingan	
Asarlarining xalqaro nashri	2015-yilda yozuvchining qissalar to'plami Angliya va Fransiyada chop etilgan	



Ijodiy safar	Erkin A'zam O'zbekistonning YUNESKOdagi vakolatxonasi taklifiga binoan 2013-yilning may oyida Fransiyaning Parij shahrida ijodiy safarda bo'lib qaytdi.
Kinoqissalari asosidagi filmlarning xalqaro kinofestivallardagi ishtiroki	Mukofot va e'tirof
Film nomi	Germaniya va Fransiya televideniylarida namoyish etilgan. Nusxasi Fukuoko (Yaponiya) kinomuzeyida saqlanadi
"Dilxiroj"	"Киношок" xalqaro kinofestivalida "Eng yaxshi ssenariy" nominatsiyasi g'olibi, Vezul (Fransiya) xalqaro kinofestivalida Bosh sovrin (Gran-pri) egasi
"Erkak"	"Московская премьера" va MDH anjumanlarida maxsus diplom, O'zbekistondagi kinofestivalda "Eng yaxshi aktrisa" nominatsiyasi g'olibi
"Zabarjad"	"Золотой Витяз" xalqaro kinoforumida (Moskva)
"Suv yoqalab"	"Серебрянный Витяз" sovrini, Nyu-York shahrida (AQSH) Osiyo filmlari kinofestivalida "Eng yaxshi aktyor" nominatsiyasi g'olibi
"Parizod"	"Киношок" xalqaro kinofestivalida bosh sovrin

Shundan so'ng har bir talaba "O'zingni tekshir" yoki daftarlarini o'zaro almashgan holda, "Do'stingni tekshir" usulidan foydalanib natijalarni taqqoslaydilar va baholaydilar.

Jadval asosida ishlashning afzalliklari:

1. *Tizimlilik*: Ma'lumotlar tartibli va izchil shaklda taqdim etiladi, talaba biografik faktlarni aniq o'zlashtiradi.
2. *Qiyosiy tahlil imkoniyati*: Ijodkorning hayoti va ijodi bosqichma-bosqich solishtirib o'rganiladi.
3. *Ko'rgazmalilik*: Jadval vizual vosita sifatida o'quvchilarning eslab qolish jarayonini yengillashtiradi.
4. *Faollikni oshiradi*: Talaba mustaqil fikrlash va axborotni tartibga solish ko'nikmasiga ega bo'ladi.
5. *Hamkorlik va interfaollik*: "Do'stingni tekshir" usuli orqali talabalar bir-birini nazorat qiladi va baholash jarayonida faol ishtirok etadi.
6. *Tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi*: Talaba jadvalni to'ldirishda muhim va ikkinchi darajali ma'lumotlarni farqlashni o'rganadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Erkin A'zam biografiyasini jadval asosida o'rganish talabalarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada samarali qiladi. Jadval ma'lumotlarni bosqichma-bosqich, izchil va ko'rgazmali tarzda o'zlashtirish imkonini berib, o'quvchilarda qiyosiy tahlil va xotira mustahkamligini ta'minlaydi. Shuningdek, ushbu yondashuv seminar mashg'ulotlarida interfaollikni oshiradi, talabalarni "O'zingni tekshir" va "Do'stingni tekshir" kabi usullar orqali baholash jarayoniga jalb etadi. Natijada, ijodkor tarjimai holini o'rganish nafaqat ma'lumot va bilim olish jarayoniga, balki tanqidiy tafakkur, hamkorlik va mustaqil ishlash



ko'nikmalariga ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, mazkur usulni boshqa ijodkorlar tarjimayi holini o'rganishda ham qo'llash, zaruratga qarab undagi tasniflarga ma'lum o'zgartirishlar kiritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A'zam E. Bayramdan boshqa kunlar: qissa va hikoyalar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. – 270 b.
2. A'zam E. Kechikayotgan odam: Qissalar. – T.: Sharq, 2002. – 446 b.
3. A'zam E. Jannat o'zi qaydadir: hikoyalar, kinoqissalar, dramatik asar va publitsistik miniatyuralar. – T.: Sharq, 2007. – 127 b.
4. A'zam E. Guli-guli: qissalar, kinoqissalar, dramatik asar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2009. – 230 b.
5. Erkin A'zam badiiy olami: Ilmiy maqolalar va suhbatlar to'plami. – T.: Turon zamin ziyo, 2014. – 304 b.
6. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиев М. Адабиётшунослик луғати. Қайта нашр. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 408 б.
7. Raimkulova S. Symbolic Images of Ekrin Azam (Based on the story of Pakana's lover)/ Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, Volume 5|February 2022. Page 63-65.
8. Rasulov A. Jasur qalam sohibi // Sharq yulduzi 2010-5. 68-75 b.
9. Toshboyev O. Botindagi bo'ron//“Hurriyat” gazetasi, 2020-yil 25-son.
10. Xolmirzayev Sh. O'ttiz beshda ham (esse) // O'zAS. – 2002 yil 2 iyul.
11. Шофиев О. Кечикаётган одам образи // “Шарқ юлдузи” журнали 2016-8. 143-149 б.
12. Шофиев О. Эркин Аъзам насри бадийати (киноя ва образ). Монография. – Т.:2019. – 176 б.
13. www.kh-davron.uz.
14. www.ziyouz.com kutubxonasi
15. <https://tafakkur.net>
16. <https://zarnews.uz/uz/post/erkin-azamning-parizodi>

**ABDULLA ORIPOV SHE'RLARINI YANGI TEXNOLOGIYALAR
ORQALI O'RGANISH**

Dilrabo Quvvatova, f.f.d. (DSc), professor,
Buxoro davlat universiteti (O'zbekiston)

d.x.quvvatova@buxdu.uz

Gulchehra Boltayeva, f.f.d. (DSc), dotsent
Navoiy davlat universiteti(O'zbekiston)

gulyashokirovna74@gmail.com

Annotatsiya. Hozirda pedagogikaning ilmiy ufqlari kengayib bormoqda. Fanlar kesimida uning yutuqlarini tatbiq etish orqali har doimgidan ham dolzarbdir. Jumladan, adabiyot fanini bugungi talablar asosida o'qitish sifatli va samarali ta'limning asosida turadi. Xususan, yangi

